


2020- yilning yanvar-noyabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **4 180,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **93,8 %**ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 211 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 346 taga ko'paygan.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **114,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **110,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **10,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **109,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **33,8 %**) o'sishidir.




Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.12.2019-yil	01.12.2020- yil	
	Farg'ona viloyati	2865	3211	112,1
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	761	861	113,1
	Qo'qon	297	319	107,4
	Quvasoy	101	113	111,9
	Marg'ilon	276	322	116,7
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	92	108	117,4
	Qo'shtepa	96	105	109,4
	Bag'dod	146	157	107,5
	Buvayda	119	133	111,8
	Beshariq	76	81	106,6
	Quva	137	137	100,0

	Uchkoprik	153	175	114,4
	Rishton	64	70	109,4
	So'x	32	44	137,5
	Toshloq	123	133	108,1
	O'zbekiston	76	83	109,2
	Farg'ona	73	96	131,5
	Dang'ara	118	123	104,2
	Furqat	62	70	112,9
	Yozyovon	63	81	128,6


Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.12.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona sh. (26,8 %), Qo'qon shahri (9,9 %) va Marg'ilon (10,0 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **383,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **67,2 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,3 %** punktga kamayib, **9,2 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **41,2 %** i yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **70,2 %**), Quvasoy (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,3 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,0** marta), va Qo'qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,1 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **52,7 %**) ga to'g'ri keldi.






Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,4 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,7 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **99,8 %** ni tashkil etgan holda **2 817,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,43 %** ni tashkil etdi yoki **979,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **90,8 %** ni tashkil etdi

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **118,7** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 062,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-noyabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 58,4 % i yoki **2 439,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

58,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **230,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi

9,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 354,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 55,5 % ni tashkil etdi.

55,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **855,0** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 35,0 % ni tashkil etdi.

35,0 %




**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	4 180,8	93,8	2 439,7
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	1084,4	106,1	448,2
Qo'qon	311,3	76,7	157,8
Quvasoy	193,4	118,5	183,7
Marg'ilon	597,5	93,1	403,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	178,5	109,8	48,4
Qo'shtepa	203,8	100,0	87,2
Bag'dod	300,7	100,5	185,9
Buvayda	109,8	103,3	53,3
Beshariq	97,6	37,1	255,6
Quva	167,9	108,6	134,9
Uchko'prik	125,6	96,5	30,2
Rishton	59,8	89,0	29,3
So'x	68,2	98,5	8,5
Toshloq	104,9	100,0	51,9
O'zbekiston	82,2	103,0	80,2
Farg'ona	70,0	87,1	25,6
Dang'ara	184,6	81,5	146,8
Furqat	119,9	84,5	79,1
Yozyovon	120,2	89,8	28,9

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,4 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,3 %** punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,5 %** punktga ko'payib, **64,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga kamayib, **29,8 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **30,7 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **1,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **68,7 %** (2,5 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,6 %** (0,7 % punktga kamayish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **12,5 %** punktga kamaydi va **13,4 %** ni tashkil etdi. Qolgan **86,6 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **12,5 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (1084,4 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (597,6 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (311,3 mlrd. so'm), Bag'dod t. (300,7 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

ijr : U.Umarov

Tel.: (73) 249-87-26

(73)-241-98-42